

IKKI ADABIY ASARLARDAGI TIPOLOGIK O'XSHASHLIKlar

Choriyeva Asila Alisher qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili uchinchi fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: asilachoriyeva2002@gmail.com Tel: +998 88 877 70 84

Annotatsiya

Ushbu maqola qiyosiy-tipologik tadqiqotlar adabiy tuzilmalarning turli jahbalarini – mavzular, his-tuyg'ular, g'oyalar, kompozision qurilishlar, uslublar va hakozolarni qamrab oladi. Maqolada Amerikalik mashhur yozuvchi Aleksandr Dima hamda, O'zbekistonlik mohir ijodkorning asarlaridagi mazmun o'xshashligi dalillar bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy – tipologik tadqiqotlar, parallelizm, genetik yaqinlik, syujet-kompozision qurilishi.

Taniqli rumin adabiyotshunos olimi Aleksandr Dima xalqaro adabiy aloqalar turlari va shakllari haqida gapira turib, turfa shakllar orasidan parallelizmlarni, ya'ni genetik yaqinlikka ega bo'lмагan tipologik mushtarakliklarni ajratib ko'rsatgan edi.

Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar adabiy tuzilmalarning turli jahbalarini – mavzular, his-tuyg'ular, g'oyalar, kompozision qurilishlar, uslublar va hakozolarni qamrab oladi. A.Dima tipologik mushtarakliklarning asosiy ko'rinishini tarixiy o'xshashliklar deb atasa ham, biroq «katta zamon va makon bilan ajralgan, ammo hech qanday ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan tushuntirib bo'lmaydigan va haddan tashqari o'xshashligi bilan bizni lol qoldiradigan ko'plab adabiy hodisalar» mavjudligini ham tan oladi (164).

Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» va «Gekelberri Finnning boshidan kechirganlari» qissalari hamda, G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi genetik yaqinlikka ega bo'lмагan ikki milliy adabiyot vakillari bo'l mish adiblarning asarlaridir.

Bu asarlar turli zamonlarda va turli mamlakatlarda yaratilganiga qaramay ularni ko'p jihatlar birlashtirib turadi. Ular mavzu jihatidan ham, syujet-kompozision qurilishi jihatidan ham nisbatan yaqin va deyarli o'xshash. Ularda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi AQSH va o'zbek bolalarining og'ir qismati haqida hikoya qilinadi.

Har ikkala adibning asarlarini o'qiyotib kitobxon ham kuladi, ham iztirob chekadi. Biroq, fojeaviy ohanglar va unsurlar har uch asarga insonlarni poklash, ogoh etish, hushyorlikka chaqirish uchun olib kirilgan.

Amerika va o'zbek adiblari ijodida avtobiografik voqealarga moyillik va tasvirdagi aniqlik ko'zga tashlanadi.

Mark Tvenda Gek piyanista Bogsning o'limidan so'ng sirkka tushadi, Shum bola esa Chorsu bozorida, Rahmat hoji olomon qilinishidan oldin "oto'yini"ni tomosha qiladi. Gek sirkka pul to'lamay, brezent ostidan yashirinib kiradi (244).² Shum bola esa Yupiterning sirkchilarining tomoshasini Chorsu maydonining o'rtasida, ochiq havoda tekinga ko'radi. Arkansasdagi sirkda chavandozlar, chavondoz ayollar va masxarabozlar tomosha qo'yishadi, Chorsuda esa chavandoz va tosh ko'taruvchi polvon davra o'rtasida chiqish qilishadi, bir aravada masxarabozlar turli hunarlarini namoyish etishsa, ikkinchi aravada laycha kuchuklarni o'rgatgan ayol qo'shiq aytadi, uchinchi aravada raqqosa o'yinga tushadi.³ Asarlardagi o'xshashliklardan yana biri Mark Tvenda Tom va uning o'rtoqlari – "qaroqchilar" suvgaga cho'kib halok bo'ladilar ("Tom Soyerning boshidan kechirganlari"), Gek hammani o'zini o'ldirishganiga

ishontirib dadasidan qochib ketadi (“Gekelberri Finnning boshidan kechirganlari”), G’afur G’ulomda Shum bolaning o’z onasiga tirikligi haqida birorta ham xabar yo’llamaganligi, natijada uni ham hamma o’ldiga chiqarganligidir. Bu haqida qissalarda shunday hikoya qilinadi.

1. “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”da “qaroqchilar” hatto o’zlarining dafn marosimida ishtirok etadilar:

“Domla halok bo’lgan bolalarning xususiyatlari, siyrak uchraydigan qobiliyatlarini va boshqachaliklarini shunday ochiq va ravshan tasvirlab berdiki, cherkovda o’tirganlarning ko’ngillari tobora yumshayib, hammalari bolalarning qarindoshlariga qo’shilib, birdan ho’ngrab yig’lay boshladilar. Hatto domlaning o’zi ham chidab turolmay, yig’lab yubordi... Oradan biror daqiqa o’tishi bilan, tashqari eshiq g’ijirladi... Ko’rsalarki, o’ldi deb hisoblangan bolalarning uchchalasi ham domla turgan mehrobga tomon yurib kelmoqda edilar. Oldinda Tom, undan keyin Jo, eng orqada o’zining uvada bo’lib ketgan kiyimlariga qaray-qaray Gek kelar edi”.⁴

2. “Gekelberri Finnning boshidan kechirganlari”da esa tug’ilgan shahridagi barcha Gekni o’lgan deb hisoblashadi. Buni asardagi Gekning Tom bilan tasodifiy uchrashib qolishi va ular o’rtasida bo’lib o’tgan suhbatdan ham bilish mumkin.

Gek fermadan shaharga keta turib Salli xolanikiga kelayotgan Tom Soyerni uchratib qoladi:

“Aravani haydar shaharga jo’nadam; yo’lning yarmiga ham yetmagan edimki, to’g’rimdan izvosh haydar kelayotibdi, qarasam, xuddi Tom Soyerning o’zi! Yonimga kelib to’xtadi-da, og’zini ochganicha qarab qoldi, keyin xuddi tomog’i qaqrab qolgan odamday, bir-ikki marta entika-entika nafas olib:

- Senga hech yomonlik qilganim yo’q edi. Nega u dunyodan kelding? Menga nima deysan? – dedi.
- Men u dunyodan kelganim yo’q, tirikman-ku! – dedim.

Ovozimni eshitib, bir oz o’ziga keldi, ammo shunday bo’lsa ham esini yig’ishtirib ololmas edi.

- Menga tegma, senga tegmayman-ku! – dedi u. – Rosting bilan u dunyodan kelmadingmi, chin hind so’zimi?

- Chin hind so’zim, u yerdan kelganim yo’q, - dedim men.

- Ha, mayli...agar unday bo’lsa, nimasini aytasan. Ammo sira aqlim yetmay qoldi... seni o’ldirib ketishgan edi-ku!

- Meni hech kim o’ldirmoqchi ham emasdi, hammasini o’zim qilganman. Beri kel, ishonmasang, mana meni o’zing ushlab ko’r!

Meni ushlab ishondi, keyin nima qilishini bilmay qoldi.” (244).

3. Shum bola bilan hamqishlog’i Turobboyning tasodifiy uchrashib qolishi ham Gek bilan Tomning uchrashuvini yodga soladi. Hoji boboning topshirig’i bilan bozorga tushgan Shum bola Chorsuda do’sti Turobboyni uchratadi: “ Xuddi tandir bozorning o’zi, Badalmat dumaning hammomiga kelganda ro’paramdan Rasulmat g’o’zafurushning o’g’li, o’z mahallam, qadrdon do’stim Turobboy chiqib qoldi.

-Ha-ha-ha, - deb quchoqlab ketdi. – Voy-bo’y, tirikmisan, xumpar, Toshkentga qachon kelding? Onang bechora sani o’ldi deb aza ochmoqchi bo’lib turuvdi. Shunaqa mehring qattiq bolamisan?” (124).

Har uchchala qissaning qahramonlari ham yetim bolalar. Ular umidsizlik nimaligini bilishmaydi, kurashchan optimist va o’tkir hazilkash o’spirinlar. Tom bilan Gek do’stlari Jimni qullikdan qutqarishga, uning barcha qatori ozod inson bo’lishiga chin dildan harakat qiladilar, “barcha eshon, mulla va ularning tantiq xotinlarining ayovsiz dushmani bo’lgan Shum bola esa o’tgan asrda minglab kitobxonlarning sevimli qahramoniga aylangan edi”.⁵

Natijada Mark Tven romanlari ham, G’afur G’ulomning “Shum bola”si ham ko’tarinki ruhda nihoya topadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlar ekanmiz, adiblar bolalar va o'smirlar ruhiyatini ochib berishda ularning muhit bilan "to'qnashuv'i"ni aziyat chekuvchi shaxs sifatida tasvirlashlari va shu obrazlar orqali o'zlarining ma'naviy-estetik ideallarini aks ettirish uchun foydalanganliklarining guvohi bo'lamiz. Bu manzarani Mark Tven va G'afur G'ulom ijodida ham kuzatish mumkin. Ularning asarlari esa inson umrining shu davrida ro'y beradigan ruhiy kechinmalarini mohirona tadqiq etilganligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1 Dima Aleksandr. Prinsipy sravnitelnogo literaturovedeniya. – M.: Progress, 1977. – S.121. (bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarning sahifasi qavs ichida keltiriladi).
- 2 Tven Mark. Geklberri Finnning boshidan kechirganlari. - T.: O'zDavnashr, 1964 (Detgizning 1955 yil nashridan Odil Rahimiy tarjimasi). – B.158-160. (bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarning sahifasi qavs ichida keltiriladi).
- 3 G'ulom G'afur. Shum bola. – T.: SHARQ NMAK, 2008. – V.115-116. (bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarning sahifasi qavs ichida keltiriladi).
- 4 Tven Mark. Tom Soyerning boshidan kechirganlari. - T.: SHARQ NMAK, 2007. – V.143-144.
- 5 Yoqubov Odil. Bizning G'afur aka // G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida. To'plovchi Olmos. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2005. – B.47.